



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI

5112100- Mehnat ta‘limi yo‘nalishi bitiruvchisi

Djumayeva Dilbar Axmadjonovnaning

bakalavr darajasini olishi uchun yozgan

**“MEHNAT TA‘LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI
TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ dots. E.J.Turdiyev

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

_____ dots. F. Ochilov


“ _____ ” _____ 2019 y.

Qarshi – 2019 y.

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA

TOPSHIRIQ

Kafedra mudiri  "TASDIQLAYMAN"
dots. X.T. Maxamov
" 06 " XI 2019 yil

Talaba: Jumayeva Dilbar

Ta'lim yo'nalishi: 5112100- Mehnat ta'limi

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: "Mehnat ta'limidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi.

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan joy: Qarshi shahar 7-maktab

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: dots. E. Turdiyev

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Ish rejasi:

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bitiruv malakaviy ishi Mazmuni	Bajarish muddati
Kirish	Mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, amaliy ahamiyatini aniqlash	Yanvar
Texnologik qism	<u>Sinfdan tashqari mashg'ulot uchun zarur o'quv moddiy texnika, asbob-uskunalar bilan tanishish</u>	Fevral-mart
Pedagogik qism	Mashg'ulotlarda yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash.	Mart-aprel
Xayotiy faoliyat xavfsizligi	Mavzuga oid texnologik xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish	April-may
Xulosa Adabiyotlar	Xulosa, adabiyotlar ro'yhati tadqiqot	May-iyun

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) **adabiyot manbalari:** N. Muslimov, Sh. Sharipov Mehnat ta'limi o'qitish metodi T-2014, Yo'ldashev Sh.F., Usmonov A. Zamonaviy pedagogic texnologiyalar va amaliyotga qo'llash T-2008, Usmonov M. Xalq xunarmandchiligini o'qitish T-2012 vil

b) **qonuniy-meyoriy xujjatlar:** "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, T.: O'zb. 1997 y. Xarakatlar strategiyasi T-2017., DTS, o'quv reja, o'quv dasturi.

v) **statistik va boshqa ma'lumotlar:**

Xalq ta'limi, mutaxassislar tayyorlash to'g'risidagi statistic ma'lumotlar.

Topshiriq berilgan kun: 15 noyabr 2018 yil

Ishni topshirish muddati: 10 may 2019 yil

Ilmiy raxbar:  dots. E. Turdiyev

Kafedra mudirining bitiruv ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi:

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI

5112100-Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruv kurs talabasi Djumayeva Dilbarning
malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: Mehnat ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi.

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi: O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish jarayonida olgan bilimlarini chuqurlashtirish va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni beqiyos. Ayniqsa mehnat ta'limida o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashda bu masala yanada dolzarb hisoblanadi.

Malakaviy ishning yozma izoh, grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, mavzuning ishlanganlik darajasi, amaliy ahamiyati yoritilgan. Birinchi bobda zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, pardoqlash operatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanganligi Bitiruv makaviy ishini bajarishda zardo'zlikka ishlov berish texnologiyasi bo'yicha ilmiy manbalar, ya'ni ishlab chiqarish texnologiyalari va shu sohadagi ilg'or tajribalardan foydalanilgan. Pardoqlash operatsiyasini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan.

Malakaviy ishining ijobiy tomonlari va kamchiliklari Bitiruv ishi reja asosida ilmiy manbalar, fan texnika yutuqlari va ilg'or tajribalardan foydalanib bayon qilingan. Chizma va tavsiyalar ish mazmuniga mos keladi.

Kamchiliklar: Ishda ba'zi orfografik va jumlar tizilishida xatoliklarga yo'l qo'yilgan.

Malakaviy bitiruv ishining bahosi (maksimal 100- ball) va xulosa. Malakaviy ish O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining malakaviy ishlariga qo'yilgan talablariga mos keladi. Uni 86 ballga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi



QarMII dots. D. Chuyanov

" 06 " may 2019-yil

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

5112100-Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruv kurs talabasi Djumayeva Dilbarning malakaviy ishiga ilmiy rahbarning

XULOSASI

Malakaviy ish mavzusi. Mehnat ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish texnologiyasi.

Malakaviy ishning hajmi _____

A) yozma izoh, qismi _____

B) grafik qismi _____

Malakaviy ishning dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Sinfdan tashqari ishlar ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va qiziqishlarini qondirishga yordam beradi. Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirish.


Malakaviy ishning yozma izoh grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, mavzuning ishlanganlik darajasi, amaliy ahamiyati yoritilgan. Birinchi bobda zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, pardoqlash operatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanganligi. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda ilmiy, nazariy ma'lumotlar tahlil qilindi, fan-texnika yutuqlari va ilg'or ishlab chiqarish tajribalari o'rganildi. Pardoqlash operatsiyasini o'qitish yangi, innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Malakaviy ish ishlab chiqarishda qo'llanilgan operatsiyalarni to'g'ri tahlil qilgan holda ilmiy ma'lumotlar reja asosida bayon etilgan. Tavsiya etilgan uslubiy ko'rsatmalar amaliyotda sinab ko'rilgan.

Malakaviy ish bahosi (maksimal baho-100). Malakaviy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining malakaviy ishlariga qo'yilgan talablariga mos keladi. Uni 86 ballga tavsiya etaman.

Malakaviy ish rahbari

 dots. E. Turdiyev

“ 2 ”

2019 yil

Mundarija

Kirish	3.
I.bob Sinfdan tashqari ishlar va uni tashkil etilishiga qo'yiladigan talablar	
1.1 Sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari	6.
1.2 Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar	11
1.3 Milliy hunarmandchilik turlari	14
II. bob Zardo'zlik to'garagani tashkil etish texnologiyasi	
2.1 Zardo'zlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi	19
2.2. Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar	27.
2.3. Zardo'zlikda zar tikish usullari, o'qitish texnologiyasi.....	31
Xulosa	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	49

Kirish

O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmonda "Ta'lim va fan sohasida rivojlantirish" bandida "... umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, o'quvchilarni mehnatga-hayotga tayyorlash xalq xo'jaligini ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislik bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish..." masalasi alohida e'tibor qaratilgan. (1)

O'quvchi yoshlarni mehnatga, hayotga tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining tarkibi hisoblangan sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta.

Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq tashkil etiladi va xalq ta'limi Vazirligining "Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiriladi. (2)

Sinfdan tashqari ta'limning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarning qiziqishlari, hoxishlariga va mustaqil tanlashlariga qarab, ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil etiladi. Bu yerda otalarning maslahati va xalq xo'jaligi (iqtisodiyot)ning ehtiyojlari, istiqbolli yo'nalishlari, milliy-madaniy meros va amaliy badiiy san'at sohasidagi qadriyatlar, ularni saqlash va rivojlantirish masalalari ham e'tiborga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 17 noyabrdagi "Xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-sonli Farmonida qayd etilganidek "... hunarmandchilik faoliyatiga yoshlarni jalb etish, "Ustoz-shogirdlik maktablari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shu sohada shug'ullanayotganlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga yer maydonlari va binolar ajratish, muhandislik kommunikatsiyalariga ulanish, ularni asbob-uskunalar, jihozlar, xom-ashyo va materiallar bilan ta'minlash ..." kabi barcha shart-sharoit va imkoniyatlar berildi. (3)

Mehnat ta'limi o'quv dasturida xalq hunarmandchiligi yo'nalishiga 20 soat vaqt

ajratilgan bo'lib, bu soatlar o'quvchilarni mazkur yo'nalish bo'yicha to'laqonli bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashlari uchun yetarli emas.

O'quvchilarning xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha ehtiyojlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar, to'garakar orqali to'ldirish mumkin.

Mehnat ta'limi xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga xalq hunarmandchiligi tarixi, uning istiqbolli yo'nalishlari, xususan zardo'zlik san'ati, uning sir-asrorlari, amaliy ko'nikmalarini egallash, hozirgi vaqtda mamlakatimizda sayyohlik va turizmni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilayotgan paytda zardo'zlik san'ati (kasbiy) bo'yicha kasbni egalalsh, tadbirkorlik, kichik biznes faoliyatiga tayyorlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini va mazmunini belgilab oldik.

Bitiruv ishimizning maqsadi. Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish (zardo'zlik to'g'argi misolida).

Bitiruv ishinining vazifalari:

1. Mehnat ta'limida sinfdan tashqari ishlarning o'rni va mohiyatini aniqlash;
2. Sinfdan tashqari ishlarning turlari, uning maqsadi va vazifalarini belgilab olish;
3. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha to'garaklarni tashkil qilish va uning faoliyatini rejalashtirish;
4. Zardo'zlik bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash.

Mavzunig ishlanganlik darajasi: Mehnat ta'limi tizimini takomillashtirish, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish hamda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha O. Avazboyev, K. Mustafoyev, U. Tolipov, N. Nishonaliyev va boshqalar. Milliy hunarmandchilik, amaliy, badiiy san'at va uni rivojlantirish, o'qitish masalalariga D. Jabborova, P. Gangarova, S. Bulatov va boshqaar o'zlarining munosib xulosalarini qo'shganlar.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti: Mehnat ta'limi jarayoni va sinfdan tashqari ishlar.

Bitiruv ishining predmeti: Mehnat ta'limi xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha to'garaklarni tashkil qilish va uni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining natijalari: Bitiruv ishini bajarish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Mehnat ta'limi bo'yicha maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning maqsadi va vazifalarini aniqlanadi;

2. Mehnat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha fan to'garaklarini, xalq hunarmandchiligi zardo'zlik to'garagining faoliyatini tashkil etish, uning mazmuni, tashkil etish usullari belgilangan;

3. Zardo'zlik to'garagi bo'yicha mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi ishlab chiqildi;

4. Mashg'ulotlarda "Insert texnologiyasi"ni qo'llash bo'yicha tavsiya berildi.

Bitiruv ishining amaliy ahamiyati: BMI dan olingan natijalar mehnat ta'limi o'qituvchilari, sinfdan tashqari ishlar bilan shug'ullanuvchilar, amaliyotchi talabalar, izlanuvchi xodimlar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

BMI Kirish, 2 bob, 6 ta paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. SINFDAN TASHQARI ISHLAR VA UNI TASHKIL ETILISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR .

1.1 Sinfдан tashqari ishlarning maqsad va vazifalari.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda fanlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni kasbga yo'llashda vaqtni bekor o'tkazmaslik, mehnat tarbiyasini, fanlardan olgan bilimlarini kengaytirishda maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta. Bolaning bo'sh vaqti to'g'ri taqsimlanmasligi, uni turli zararli oqimlarga kirib ketishiga yoki boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, qo'shimcha ta'lim-tarbiya, boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishga o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning ommaviy sport, madaniy estetik, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini tanlash hamda amalda joriy etish vositasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim to'g'risida»gi Nizomida quyidagi umumiy qoidalar berilgan:

1. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»lariga muvofiq tashkil etiladi.

2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, dinga munosabati, xizmati, turar joyidan qat'iy nazar maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olish teng huquqlidir.

«Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim to'g'risida»gi Nizomda quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan:

— maktabdan tashqari ta'lim bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, markazlari muassasalarida amalga oshiriladi;

— maktabdan tashqari ta'lim bolalar va ularning ota-onalari xohishiga asosan

ixtiyoriy ravishda, xohlagan turda va tilda olib borilishi ta'minlanadi;

—yo'naltirilgan to'garaklar belgilangan talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil etiladi;

— maktabdan tashqari ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga davlat ta'lim talablari asosida bilim berish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va demokratiya tamoyillari, madaniyatimiz, tilimizga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabdan tashqari ta'limning asosiy vazifalari:

— shaxsni maktabdan tashqari ta'lim olishi bo'yicha huquqini ro'yobga chiqarish;

— maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

— maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya mazmunini muntazam yangilab borish;

— o'quv-uslubiy majmualarni hamda ta'lim jarayonini o'quv adabiyotlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash;

— o'quvchining bo'sh vaqtini tashkil etishda xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini tiklash;

— to'garak a'zolarini o'qitish, tarbiyalash ishlarining sifatini yaxshilash maqsadida o'quv-tarbiyaviy va uslubiy ishlarni takomillashirish;

iqtisodiy savodxonlikni, iqtisodiy ongini, fikrlashni hamda madaniyat darajasini oshirish;

— ta'lim oluvchilar va to'garak rahbarining ishlashi, o'qishi, sog'lig'i va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratish. (4)

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'llash, tanlagan kasbi bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatlarini kengaytirish faqat darslarda fanlarni o'rganish jarayonida emas, balki maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ham hisobga olinadi. Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiya jarayonida mehnatga tayyorlash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish imkoniyatlari kengayadi. Maktabdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirishda to'garak a'zosining qiziqishlari hisobga olinishi, ixtiyoriylikka zamin yaratadi. Shuningdek, mehnat ta'limi jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlari to'g'ri,

rejali o‘tishini ta’minlash va turli kasblarni egallash imkoniyatlari albatta bo‘ladi.

Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar bo‘yicha o‘quv rejaları va dasturlarida «Maktabdan va sinfdan tashqari ta’lim to‘g‘risida»gi Nizomga hamda «Mehnat ta’limi va kasbga yo‘llash» fani bo‘yicha dasturlarga asosan to‘garaklarda o‘quvchilar egallashlari kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka mazmuni yoritiladi. Darsga tayyorgarlik jarayonida to‘garak rahbarlari quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

- to‘garak a‘zolarini manbalar ustida mustaqil ishlashga o‘rgatishi;
- davlat talablari asosida fan dasturlarini tuzishi;
- har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish maqsadida davlat siyosatini amalga oshirishi;
- to‘garak a‘zolarining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishi;
- ta’lim oluvchilarni o‘qishi, sog‘lig‘i, dam olishi uchun sharoit yaratishi;
- bichish-tikishni o‘rgatish to‘garagi rejasini tuza olishi;
- bichish-tikish to‘garagini tashkil eta olishi;
- tikuvchilik materiallari, tikuv mashinalari bilan ishlay olishi;
- to‘garak a‘zolarini ehtiyoj va qiziqishlarini qondirishi;
- to‘garak a‘zolarini o‘qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilash maqsadida o‘quv-tarbiya va metodik ishlarni takomillashtirishi;
- iqtisodiy savodxonlik, fikrlash va madaniyatlilikni tarbiyalashi;
- to‘garak a‘zolari bilan olib boriladigan ishni yanada samarali shakllarini izlash bo‘yicha ishlarni tashkil etishi;
- to‘garak a‘zolari bajargan ishlarini baholay olishi;
- iqtidorli to‘garak a‘zolarini aniqlashi va ular bilan ishlashi.

Maktabdan va sinfdan tashqari ta’lim muassasalarining to‘garak qatnashchilari ongida yuksak ma’naviy-axloqiy vazifalar milliy hunarmandchilik asosida mujassamlashgan bo‘lishi kerak. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari to‘garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim

o‘rin tutadi. To‘garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo‘lishi, ular davlatimiz ramzlari, madhiyasi, urf-odatlarimizni, milliy kiyim tarixini bilishlari shart. O‘quvchi qaysi to‘garakka qatnashishidan qat‘iy nazar, shu kasb yoki hunar to‘g‘risida boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bolishi lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari muassasa tarbiyachilari jamoasi oldida doimo to‘garak a‘zolariga umuminsoniy axloq qoidalari, milliy hunarmandchilik asosida hayot kechirishni o‘rgatishdek muhim vazifa turadi.

Shunday ekan, maktabdan va sinfdan tashqari ta‘limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ta‘lim berish va kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmatlar turini ko‘paytirish;
- milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg‘or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;
- to‘garak a‘zolarining bo‘sh vaqtini tashkil etish, shu jumladan xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Hozirgi vaqtda pedagogika va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz maktabdan tashqari ta‘limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo‘nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni to‘g‘ri tashkil etish, yoshlarimizning bo‘sh vaqtini unumli va mazmunli o‘tkazishda, kasbga yo‘llash, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishda o‘z mehnatidan bahramand bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

To‘garak ishtirokchilarining bajargan ishlaridan ko‘rgazmalar tashkil etish orqali turli kasb-hunarlarini o‘quvchilarga targ‘ibot qilish, o‘z navbatida to‘garaklarga bo‘lgan e‘tiborni, turli hunarlarni o‘rganishga diqqatini jalb etish, to‘garakka qiziquvchilarni ko‘paytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Sinfdan tashqari ta‘limda yangi o‘quv yili uchun to‘garakka qabul qilish va uni tashkil etish tartibi quyidagicha:

—25-30 avgustda tashkiliy ishlar bo'yicha yig'ilish o'tkaziladi;

—yig'ilishda har bir to'garak a'zosi bilan suhbatlashiladi, maqsad va vazifalar, rejalar ko'rib chiqiladi;

—to'garak qatnashchilari bilan to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish kunlari va vaqti belgilanadi;

—to'garak mashg'ulotlari har yili 1-sentabrdan, kelasi yilning 31-mayigacha olib boriladi;

—to'garak darslarini o'tish uchun tasdiqlangan reja uch yilga mo'ljallanadi;

—to'garakni tashkil etishda xohlovchilarning yoshlarini hisobga olgan holda bir guruhga birlashtiriladi. Har bir guruhda 10—12 ta to'garak a'zosi bo'lishi kerak. Guruhda sardor saylanadi;

—to'garak qatnashchilarining mashg'ulotlarga ishtiroki navbatchilar orqali nazorat qilib boriladi;

—to'garak rahbarida jurnal bo'lib, to'garak mashg'ulotlarining hisoboti hisoblanadi;

—jurnal mazmuni uni yuritish tartibi, o'quv yili uchun to'garak o'quv rejasi, mashg'ulotlarni o'tkazish jadvali, soatlarning taqsimoti, xavfsizlik texnikasi qoidalari, to'garak a'zolarining ro'yxati, to'garak ishini tahlil qilganlarning fikr va mulohazalari va hokazolardan iborat.

To'garak ishini tashkil etish:

1. Haftasiga 1—2 marta 4 soatdan ma'ruza yoki to'garak a'zolari tomonidan amaliy ishlar bajarish.

2. To'garak a'zolari tomonidan bichish-tikish bo'yicha mustaqil ishlar bajarish.

3. Har bir to'garak a'zosining mustaqil bajargan uy ishini to'garak rahbari tomonidan 100% nazorat qilinishi.

4. Tayyorlangan buyumni namoyish qilish orqali baholash, rag'batlanirish.

5. To'garak o'tkazish joyi, vaqti aniq bo'lishi: to'garak mashg'ulotlari birinchi yili haftasiga 2 marta 3 soatdan, 2—3- yillarda haftasiga bir marta 3 soatdan o'tkaziladi.

6. Avvalgi o'quv yilidagi ijodiy ishlardan na'munalar, to'garak boshlanganligi haqida e'lonlar osish.

1.2 Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar.

Kasb-hunar to'garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadi to'garak a'zolariga tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berishdangina iborat emas, balki to'garak a'zolarining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, mehnatga, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamoa va uning a'zolariga bo'lgan ijobiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim berish bilan birga tarbiyalashga katta ahamiyat berish kerakligini mutafakkirlar o'z davrida aytib o'tganlar. (55)

Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, narsa baland daraja beruvchi tarbiyadir. Shu bois to'garak darslari jarayonida to'garak rahbari avvalo o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, kiyinishi, so'zlashishi, o'zini tutishi bilan to'garak a'zolariga o'rnak bo'lishi kerak. To'garak jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarishda shaxsning javobgarlik, vijdonlilik kabi xislatlarini, mehnat intizomiga amal qilgan holda jamoa bo'lib mehnat qilish malakasini, ijtimoiy mulkka g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash nazarda tutiladi. To'garak a'zolarini tarbiyalashning bir qator qonun qoidasi mavjud:

- 1) jamoa bo'lib mehnat qilish, topshirilgan ishga javobgarlik hissini tarbiyalash;
- 2) o'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish hislarini tarbiyalash;
- 3) ongli intizomni tarbiyalash;
- 4) jamiyat va shaxs mulkiga g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash;
- 5) to'garak mashg'ulotlari jarayonida tarbiya usullaridan: iqtisodiy, kasbiy, axloqiy, badiiy, milliy, jismoniy mehnat, mehnat madaniyatini shakllantirish va hokazo.

Endi bu tarbiyalash usullarini qanday yo'llar bilan olib borilishini ko'rib chiqamiz:

1. To'garak mashg'ulotlarida jamoa bo'lib ishlashda to'garak a'zolari bir-biriga yordam beradi. To'garak a'zolari ba'zi ishlarni birgalikda, bir-biriga yordam berib, ish o'rinlarini almashib, maslahatlashib bajarishlariga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatlardan

to'garak rahbari to'garak a'zolarini tarbiyalashda keng foydalanishi kerak. To'garak jarayonida to'garak a'zolari o'zaro do'stlik, bir-biriga yordam berish, rahbarlik, bo'ysunish, javobgarlik, talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. To'garak rahbari bu munosabatlarni kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'gri yo'naltirib turishi lozim.

2. To'garak mashg'ulotlarida ayrim hollarda to'garak rahbari to'garak a'zolariga o'z ishini baholashni taklif etadi. Bu esa to'garak a'zosiga tayyorlangan buyumni sinchiklab tekshirishga, sifat ko'rsatkichiga amal qilishga, o'z-o'zini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi.

3. To'garak rahbarining talablarini bajarish natijasida to'garak a'zolari qabul qilingan qoidalar, ish usullarini aniq, ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular berilgan ish maromini saqlashga, ish o'rnini namunali tutishga, asboblarni ehtiyot qilishga odatlanadilar. To'garak a'zolariga mehnat ta'limi berish, turmushga tayyorlashning muhim sharti hisoblangan intizomni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. To'garak a'zolariga ishonish, ularni hurmat qilish bilan birga talabchanlikni qo'shib olib boorish ongli intizomni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

4. To'garak a'zolarida ijtimoiy mulkka nisbatan g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalashning ta'sirchan usullaridan biri ularni unumli mehnatga, to'garak ustaxonasini jihozlash ishiga, asboblarni ta'mirlashga jalb qilishdan iboratdir. To'garak a'zolarini buyumlarni bichish vaqtida gazlamani tejamkorlik bilan sarflashga, asbob-uskuna, korjamalarni ehtiyot qilishga o'rgatish, o'z ishini sidqidildan bajarishga, mehnatni sevishga o'rgatish orqali mehnat tarbiyasi shakllanadi.

5. Mehnat madaniyatini tarbiyalashda har bir to'garak a'zosi o'zidan keyin shu ish joyida boshqa shaxs o'tirib ishlashi, unga ham toza, ozoda ish joyi zarurligini tushunishi, shu jo'yini yig'ishtirishga odatlanishi kerak. Shunig uchun ham mashg'ulot rejasini yozishda albatta ish jo'yini yig'ishtirish bosqichi rejalashtirilishi va bajarilishi nazorat qilinishi kerak.

6. To'garak rahbari tayyorlangan buyumning chiroyliligini, tozaligini, bezagini hamda to'garak a'zosining mehnat harakatlarining aniqligini doimo ta'kidlab turishi

orqali to'garak a'zolarida badiiy did rivojlanadi. Sifatli va sifatsiz tayyorlangan buyumni taqqoslab, chiroyli va xunukni ajratish, ranglarning bir-biriga mosligi o'rgatib borilsa, to'garak a'zolarida badiiy did tarbiyalanib boradi.

7. To'garak jarayonida eng muhim bo'lgan kasbiy tarbiyani shakllanishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Buning uchun har mashg'ulotda to'garak a'zosi bajarayotgan ishi ommaviy kasb egalari bajaradigan ish ekanligini eslatib turiladi, korxonalariga borib ishchi kasblari bilan yaqindan tanishtiriladi.

8. Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar, «Toma-toma ko'l bo'lur» maqolining mazmunini o'quvchilarga tushuntiriladi. To'garak mashg'ulotlari jarayonida to'garak a'zolari bilan biror buyumni tayyorlash vaqtida shablon va andazalarni to'g'ri joylashtirishni, materialni tejab ishlatishni talab qilish, qolgan qoldiqlardan biron kichik buyumlarni tayyorlashni o'rgatish orqali iqtisodiy tarbiya shakllanib boradi.

9. Mashg'ulotlar davomida mavzuga oid tarixiy ma'lumotlardan foydalanish, udumlar, an'analar, urf-odatlar asosida bilim berish orqali to'garak a'zolarida milliy tarbiyani shakllantirishga imkon yaratiladi. To'garak a'zolarining nutqini o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun bajargan ishlarni ketma-ketlik tarzida aytib berish. Buyum haqida ma'lumotlar, qo'llaniladigan gazlama, fasonlar haqida to'garak a'zolarini gapirib berishga o'rgatiladi. Shu tariqa to'garak a'zolarining nutqi ravonlashib, til boyligi oshadi. Abdulla Avloniy ham til masalasiga katta e'tibor beradi. Tilni axloq bilan bog'lab talqin qiladi. U o'z asarlarida har bir kishi o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatishi, milliy-adabiy tilning taraqqiyoti uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi.

10. Kasb-hunar to'garaklarida milliy hunarmandchilik asoslarini o'rgatishda, kashtachilik, zardo'zlik, popochilik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik va boshqa yo'nalishlardagi buyumlarni tayyorlashda, ularni bezash jarayonida ham to'garak a'zolariga kasbiy tarbiya beriladi. Mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida muzeylarga olib boriladi, noyob asarlar bilan tanishtiriladi, buyumlar tayyorlashda ayrim elementlardan foydalanishga o'rgatib boriladi.

11. To'garakar ishini tashkil etishda to'garak a'zolarini jismoniy tarbiyasiga e'tibor beriladi. Turli dastgohlar va asbob- uskunalar bilan ishlashda, qo'l ishlarini bajarishda ish bilan ko'zning orasidagi masofani to'g'ri saqlash, o'tirishda gavdani to'g'ri bo'lishiga ahamiyat berish xonada sog'lom mehnat sharoitini yaratish orqali erishiladi. To'garak rahbari to'garak a'zosiga bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishda sog'lig'iga zarar yetmasligini yodida saqlashi lozim.

1.3 Milliy hunarmanchilik turlari

Modulning asosiy vazifalardan biri maktab o'qituvchilariga hunar o'rgatishning milliy an'anaviy asoslarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etishdir. Buning uchun avvalom bor: **Hunar nima? Hunarli, hunarmand, hunarmandchilik deganda nimani tushunasiz?** kabi savollarga javob berishimizga to'g'ri keladi.

Hunar - muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan ijodiy mehnat faoliyati.

Hunarli - biror hunarni puxta egallagan shaxs.

Hunarmand - biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta.
Hunarmandchilikning asosiy belgilari: oddiy mehnat qurollari yordamida biror ishning bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibdalligidir.

O'zbek milliy hunarmandchiligining ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, savatchilik, pichoqchilik, misgarlik, zardo'zlik, bo'yrachilik, taqachilik, gilamdo'zlik, qulfsozlik, tunukaso'zlik, kigiz bosish, suyak o'ymakorligi, kashtachilik, to'quvchilik, rixtgarlik, etikdo'zlik, toshtaroshlik kabi turlari bor.

O'zbekistonda badiiy gazlamalarni bezash san'ati chindan ham xalq san'atida misli ko'rilmagan hodisadir. Unda qadimiy xalq san'atining yuksak an'analari bilan birga hozirgi zamoni jonli his qilishga undaydigan san'at ajoyib tarzda mujassamlashgan. Gazlamani bezash san'atida, ajoyib solnomaday, uning murakkab ko'p asrli tarixining tarixiy davrlari aks etgan, ming-minglab talantli usta san'atkorlarning ijodi iz qoldirgan. (6)

O'zbekiston kashtachiligini uning noyob turi zardo'zlik san'atisiz to'la tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu san'at o'tgan asrning o'rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U

erda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zardo‘zlik odatda erkaklarga mansub bo‘lgan va ular o‘z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zar va kumush ip bilan erkaklar to‘ni, salla, do‘ppi, sharvar, poyafzallar, ayollarning ko‘ylak, kamzul kaltacha, peshanaband, ro‘mol, etik va tuflilari tikilgan.

Rangdor tosh va metall qubbalar qo‘shib tikilgan zardo‘zlik buyumlari saroyning ichki qismini hamda ot jabduqlarini bezashda keng qo‘llanilgan.

Zardo‘zlik san‘ati XIX asrning o‘rtalarida naqshlarning kompozitsion joylashuvida va uning ko‘klash usulida yuksak kamolotga erishdi. Ish jarayoni yumshoq teri yoki kartonga naqshlar solish, so‘ng ularni kesish, uni kergiga tortilgan matoga mahkamlash va zar yoki kumush iplar bilan tikishdan iborat edi. Naqshning har bir qismi maxsus bir baxya bilan tikilardi, ular turi o‘ttizdan ortiq edi. Har bir naqshga ma‘lum bir tikish usuli: sidirg‘aga zamindo‘zi, ochiq fondagi kesilgan rasmga guldo‘zi deyiladi. O‘zbek dekorativ amaliy san‘ati qadim zamonlardan beri maqtovlarga sazovor bo‘lib kelgan va o‘zbek madaniyati rivojlanayotgan tarixiy sharoitda unga alohida ahamiyat berilgan. Ko‘p asrlar davomida o‘zbek xalqi bu san‘atning boy hamda rang – barang amaliy – badiiy an‘analarni yaratib kelgan. Amaliy san‘at – xalqning turmush san‘atidir. Uning eng muhim belgisi badiiy ijod bilan moddiy talabning chambarchas bog‘langanligidir; badiiy va amaliy zaruriyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ularning g‘oyaviy badiiy va ijodiy – amaliy mohiyatlarining birligini vujudga keltiradi. Amaliy san‘at asarlarini shaklning maqsadga muvofiqligi hamda shakl va ta’sir birligi ajratib turadi.

Amaliy san‘atning ijtimoiy mohiyati –uning kollektiv mahoratining mahsuli ekanligidadir, u nasllardan nasllarga meros bo‘lib o‘tgan va o‘zida bir qator qatlamlarni mujassamlashtirganki, uning qadimiy namunalari o‘zbek xalqining tarixan shakllangan madaniyati belgilarini o‘zida chuqur aks ettiradi.

Xalqning dekorativ amaliy san‘atiga bo‘lgan qiziqishining tobora ortib borayotganligi uning tarixiy madaniy roli, doston va musiqa, she’riyat va raqsdan

bo'lgani kabi xalq xarakterining eng teran xususiyatlari, estetik qarashlari, didi, dunyoqarashi va talantini o'zida namoyon qilishi bilan belgilanadi.

Xalqning milliy an'analari talantli ustalar tomonidan avaylab saqlanib, qayta jonlantirilib va rivojlantirilib kelinmoqda. Ularning zamonaviy talabi va vazifalariga mos ravishda qo'llanilishi O'zbekistonda dekorativ - amaliy san'atining muvaffaqiyatli rivojining zaruriy omilidir.

Xalq san'atining nihoyatda rivoj topgan, bizning davrimizgacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan va hozirgi zamon ustalari ijodida yanada rivoj topgan turlaridan biri barcha joylarda tarqalgan va qadim zamonlardan buyon boy an'analarga ega bo'lgan zargarlik san'atidir. Qadimiy zargarlik bezaklari kiyim-kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zeb-ziynatlaridan biri bo'lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy bog'langan, rangi, shakli va vazifasi bilan hamohang bo'lgan.

Usta zargarlar asosan kumushdan, kamdan-kam tilladan buyum yasashgan va asil metalni yoqut, zumrad, safir kabi qimmatbaho yaltiroq toshlar bilan: dur, feruza, haqiq, la'l, marjon kabi yarim qimmatbaho, jilosiz, notiniq, lekin ochiq va to'q rangli toshlar bilan, shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo'llana boshlagan rang-barang yaltiroq shisha marjon va munchoqlar bilan birga qo'shib ishlatishgan.

Mahalliy zargarlar o'rtasida azaldan keng tarqalgan metalga an'anaviy ishlov berish usullari ham xilma-xildir: o'ymakorlik, cho'kichlash, kandakori, hakkoki, qadama va to'rsimon bosma naqsh solish. Ustalar tilla suvi berish, qadama naqsh yasash, qoraytirish va emallash texnikasida ham yuksak mahoratga ega bo'lishgan.

Zargarlik san'atining har bir markazida ularning eng yiriklari Buxoro, Toshkent, Xorazm, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijonda buyumlarning shakli, foydalanadigan materiali, naqshlari va ishlash uslubi o'ziga xos bo'lgan.

Usta zargarlar uzuk, zirak, bilaguzuk, marjonga o'xshagan keng tarqalgan va kundalik taqishga mo'ljallangan sodda zeb-ziynatlar bilan birga yuksak mahorat talab qiladigan o'ta murakkab naqshli zargarlik buyumlarini ham yasashgan.

Respublikaning ko'pchilik shahar va viloyatlari - Buxoro, Andijon, Surxondaryoda usta zargarlar hali ham aholining yakka buyurtmalariga binoan ayollar zeb-ziynati (zirak, ko'zli uzuk va bilaguzuk) yasab kelishmoqda.

Amaliy san'at asarlari hamda buyumlari insonning moddiy muhiti va ma'naviy dunyoqarashini nafislashtirishga, estetik fikr uyg'onishga bo'lgan psixofiziologik tushunchalarini boyitishga xizmat qiladi. Keyingi yillarda xalq amaliy san'ati yangi sifat bilan o'sib, ulg'ayib amaliy san'atning rang-barang, serjilo gulshanini namoyish etmoqda. Ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, qandakorlik, kulolchilik sohalarida juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu borada yangicha uslub hamda badiiy kashfiyotlarning samarasi yanada oshdi. Ana shu sermahsul ijodiy rag'batlanish jarayonida o'zbek ustalarining ijodini har tomonlama o'rganish va ularga amal qilish vaqti keldi.

Mustaqillik yillarida respublikamizning deyarli barcha amaliy san'at markazlari, yangidan tashkil etilgan firma hamda qo'shma korxonalarining ijodkor kosib va hunarmand ustalari tomonidan xalq san'atning kashtado'zlik, gilamchilik, ganch o'ymakorligi, zargarlik kabi o'nlab turlari rivojlanib kelmoqda. Har bir xalq kelajak avlodlarga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa joylardagi me'morlik obidalari va amaliy san'at namunalarini tomosha qilar ekanmiz, ularning go'zalligiga qoyil qolamiz. Lekin bu go'zallik qalbidagi voqeliklarning unsiz ovozini eshita olmaymiz. Axir bu go'zallik qalbida cheksiz ma'naviyat xazinalari yashirinib yotadi. Jumladan, yog'och o'ymakorlik san'ati namunalaridan biri bo'lgan eshikni olaylik. Qadimda xonadon eshiklari va me'morlik yodgorliklaridagi eshiklar qaddi odam bo'yidan pastroq qilib yasalgan. Buning sababi shundaki, dono xalqimiz «tarbiya ostonadan boshlanadi» deyдилar. Har bir inson hovliga yoki xonaga kirganda egilib salom bilan kirsin. Eshiklarning chiroyli qilib bezalishi esa, shu xonadonga kelgan mehmonning ko'tarinki ruhda, ya'ni xursand bo'lib kirsin, degan ma'noni bildiradi. Kulolchilik buyumlaridan laganni olaylik. Lagan nasiba hamda dunyoda rizqimiz

butun bo'lsin degan niyatda doira shaklida yasalgan. Buning ramziy ma'nosi bu xonadoning rizqi doim butun bo'lsin degan ma'noni bildirgan. (7)

Milliy hunarmandchilik hamda amaliy san'atini yanada taraqqiy ettirish borasida O'zbekiston Respublikasi hukumati, muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov doimiy g'amxo'rlik qilib kelmoqdalar. Bu borada bir qancha davlat manfaatiga molik bo'lgan Farmon va Qarorlar joriy etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 27 sentyabr 1996 yildagi "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi huzuridagi "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qarorida "...o'tmish madaniyatimizga oid qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'at na'munalari va tarixiy, madaniy qimmatga molik boshqa yodgorliklarni mamlakatimizda, xorijda izlab topish va o'rganish, ulardan ulkan merosimizning uzviy qismi sifatida foydalanish" kabi ko'rsatmalar berilgan. Shunday ekan, hozirgi kun vazifalaridan biri - milliy hunarmandchilik, amaliy san'at sohasidagi ijodiyotni yanada takomillashtirish, uni jahon xalqlarining e'tiboriga molik ravishda taraqqiy ettirishdir.

Yoshlarimizga har xil qiyinchiliklarga bardosh berib o'zbek hunarmandchiligini o'rgatib, milliy an'ana tariqasida davom ettirib kelayotgan ustalar kam emas. Biroq shunga qaramay o'zbek milliy an'analarini qayta tiklash eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyoda qanday hunar bo'lmasin, albatta uning ustalari va shogirdlari bo'ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi kabi hunarlarning o'ziga yarasha ustalari bor. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo'ladi. Agar ustaning shogirdi bo'lmasa, uni xuddi mevasiz daraxtga o'xshatish mumkin. Chunki o'z hunarini ustalarimiz avlodan-avlodga an'ana tariqasida o'tkazib kelganlar.

II bob. Zardo‘zlik to‘garagini tashkil etish texnologiyasi

2.1. Zardo‘zlik san‘ati tarixi va uning rivojlanishi

Zardo‘zlik — hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi.

Zardo‘zlik san‘ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vavilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgach, zar, ipak va jun ip qo‘shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim-kechaklarni faqat imperator a‘yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo‘zlik san‘ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san‘atining rivojlanganligiga XV—XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san‘ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo‘zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Xullas, Vizantiya qayerga ta‘sirini o‘tkazgan bo‘lsa o‘sha yerda zardo‘zlik rivojlangan.(8)

O‘rta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san‘ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma‘lumki, o‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I—II asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog‘ida o‘tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I—II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy «Hindiston safarnomasi» asarida 1442 yili Shohrux zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o‘rtasida turgan elchilarning sovg‘alari orasida zarbof kiyimlar bo‘lganligini aytib o‘tgan. 1465 yili «Ashratxona» maqbarasi haqidagi hujjatda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o‘tgan. Hirotida yashab ijod etgan Vasfiy o‘zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo‘zlik kasbi to‘qrisida bayon etgan.

XVII asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX—XX asr boshlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktabi yaratilgan. o‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va boshqa joylarda zardo‘zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan

tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun tikilgan. Yuzlab qo‘li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan. Bu ustalarning ko‘pchiligi ota-bobosidan meros bo‘lgan kasbi saroy ahllari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog‘, salla, quloq va jul tikishdir («Darham» choponining bir qismi Duxoba. Tikishning markaziy maydon zaminbardori va hoshiyasi «bodom» kashtasi bilan tikilgan, XXI. «Zei kurta» qismlari., Milliy zar to‘n kiygan erkak kishi, Milliy libos kiygan ayollar, Etik. XVIII asr Buxoro). Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o‘tilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqqi yo‘q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg‘a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo‘zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an‘analaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8—10 yoshdan katta bo‘lmagan o‘g‘il bolalariga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbof to‘n kiydirishgan» (Bolalar zar to‘ni, Duxoba. Usta Ominjon Majidov. 1910-1915 yillar, Choponning bir qismi). XIX—XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800—1826 yillarda Haydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo‘zi maxsi (1810 yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827—1860 yillarda Amir Nasrulloxondan juda ko‘p zarbof kiyimlar saqlanib qolgan. 1895 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadxonga mansub juda ko‘p zardo‘zlik kiyimlar ko‘p saqlanib, o‘sha davr zardo‘zlik san‘ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. o‘rta Osiyoda zardo‘zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. o‘sha vaqtda Buxoroda 350 ga yaqin zardo‘z ustalar bo‘lgan. Ular ustidan nazorat qilib turadigan maxsus tashkilot bo‘lgan. Sex ustaviga o‘xshash risolalari bo‘lib, u diniy rasm-rusumlarga hamda urf-odatlariga amal qilishni talab etar edi. Zardo‘zlarning ko‘pchiligi tevarak-atrofdagi guzarlarga yaqin joylarda yashar edilar. Shaharlarda bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarning katta qismi

aynan guzarda joylashgan edi. Maxsus tashkil etilgan tashkilotga amirning saroy ustalaridan tashqari yollanib ishlaydigan xususiy ustalar — xalfalar ham kirar edi.

Tashkilot uyushmasining boshlig'i eng hurmatli va tajribali usta — oqsoqol yoki bobo bo'lgan. U rasmiy ravishda saylanmay, bobo diniy-axloqiy masalalarni hamda ustalarning hatti harakatlarini kuzatib borar edi. Agarda bobo bo'lmagan holda oqsoqol uning o'rnini bosib turar edi. Oqsoqol Amir saroyi bilan amirlik ma'muriyati o'rtasidagi tashkilotning rasmiy vakili hisoblangan. U yirik buyurtmalar olishda va taqsimlashda, usta, xalfa, shogird o'rtasidagi nizolarni hal qilishda, bozordan chakana ustaxonalardan belbog', ayollar bezagi, ro'mol va hokazolarni sotib olishda xizmat qilgan. Amirning bosh amaldori zarur buyumlar ro'yxatini qushbegidan oqsoqolga bergan. Oqsoqol yakka holda ishlaydigan ustalardan buyum narxini kelishib olgan va buyurtma ro'yxatidagi narsalarni olib qushbegiga ko'rsatgan. Keyin esa oqsoqol ustalarni rozi qilgan. Oqsoqol bundan tashqari uyushma a'zolarining turmushi bilan chambarchas bog'langan bo'lgan. Oqsoqol uyushma a'zolarining oilasida chaqaloq tug'ilsa, to'y va marosimlarda nechta odam aytish, nimalar kerak bo'lishini, qancha to'yona qilish va boshqalarni hamda mana shu marosimlarga boshidan oxirigacha bosh-qosh bo'lgan. Oqsoqolga alohida maosh ajratilmay saroy topshiriqlarini bajargani, har xil xizmatlari uchun, to'y va marosimlarda choponlar kiygizishgan, pul va sovg'alar taqdim qilishgan. Oqsoqolga poykor, ya'ni yordamchi tayinlanar edi, u yosh ustalardan saylanib, unga ham maosh ajratilmas edi. Poykorga uyushma a'zlari to'y, o'lim, hovli to'yi va boshqa ma'rakalarda arzon matodan tikilgan chopon in'om etar edilar. Buxoro amirining shahardan tashqaridagi Sitorai MohiXosa hamda Shirbudun saroylarida har yili bozor sayli bo'lib, unda xalq amaliy san'ati turlaridan kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, pichoqchilik, do'ppido'zlik va boshqalar qatori zardo'zlik buyumlari ham tashkil etilar edi. Shirbudunda to'rtolti hafta, Sitorai MohiXosada ikki haftacha davom etadi. Bu sayl har yili xalqning an'anaviy bayrami hisoblanib hukumat tomonidan qonunlashtirilgan edi. Narsalarni sotishga qulay bo'lishi uchun vaqtinchalik rastalar qurilar, bularning hammasini uyushtirishga ustalarning oqsoqoli rahbarlik qilardi. Bunday sayllarning bo'lib turishi xalq amaliy san'atining rivojlanishiga katta qissa qo'shgan. Feodalizm

davrida hamma hunarlar kabi zardoʻzlik muqaddas hisoblangan. Chunki har hunarga, kasbga boʻlgan hurmat shunchalik boʻlganki ustalar har bir qilgan ishlarini dil vijdoni bilan bajargan. Ustalarning aytishicha eng birinchi usta zardoʻz, eng birinchi ustoz, gʻoyibona homiy hamda pir hazrati Yusuf boʻlgan deyishadi. Shu haqda kichkina risolacha boʻlib unda zardoʻzlik kasbining paydo boʻlishi, uni oʻrganish qonun-qoidalari, ishdan oldin oʻqiladigan duolar zardoʻzlik kasbining homiysi «Arvohi pir»ga sigʻinish uzoq vaqtgacha davom etgan.

«Guli surx» ayyomida, yaʼni ilk bahor kunlarida zardoʻzlar Buxoro yaqinidagi Bahovaddin qishlogʻiga kelib qoʻy soʻyib xudoyilar qilishgan. Pirzodalar arvohiga bagʻishlab haftaning payshanba, yakshanba kunlari barcha zardoʻzlar toʻplanishgan. Qiroatxonlik dasturxon ustida boʻlib, risolachi zardoʻzlikni kelib chiqish qonun-qoidalari va oʻqiladigan duolarini tushuntirib berishgan. Risolachiga qiroatdan soʻng kishilar nazirniyoz berganlar. Bu esa ularni zardoʻzlik kasbiga boʻlgan hurmatini yanada oshirgan. Buxoroda saroy zardoʻzlik ustaxonalari boʻlib ular arkda, podshohlik binolarida, oliy davlat amaldorlarning hovlilarida joylashgan boʻlib, amir xazinasidan taʼminlanib turilgan. 1860—1885 yilda saroyda bitta, 1885—1911 yillarda ikkita ustaxona boʻlgan. Birinchi ustaxona davlatning bosh vaziri—qushbегining podshohlik uyida, ikkinchisi amirning moliya hamda soliq ishlarini yurituvchi zakotchining uyida edi. Qozi Kalon Badriddinning uyida ham zardoʻzlik ustaxonasi bor edi. Unga podshoh ruxsat berib, saroy ustaxonalari darajasida huquqqa ega edi. Qozi Badriddinning uy ustaxonasida amirning maxsus ruxsatnomasi bilan har xil sovgʻa-salom tayyorlanar edi.

1894 yili amir Abdulahadning Karmanaga butunlay koʻchib oʻtishi, saroy ustaxonasi faoliyatini toʻxtatdi. Saroy buyurtmalarini avval xususiy ustalar tayyorlab berar edilar. Keyinchalik esa Chorbogʻigul saroyi qoshidagi ustaxonada bajarildi. 1915 yili Olimxon davrida Buxoroda Qushbegi Mirzo Urganjiyning uyida podshohlik ustaxonasi tashkil etilgan. Bu ustaxona qushbegi ixtiyorida boʻlgan. Unda ishning koʻpkamligidan qatʼi nazar 20 tadan 40 tagacha ustalar ishlagan. Ustaxonaga ustakor boshchilik qilgan. Ustakor tajribali, malakali tarhkashlardan (yaʼni naqsh chizuvchi

usta) qushbegi tomonidan saylangan. Bulardan biri gul tikish san'atida qoravulbegi, Salim ustakorlik lavozimida ishlagan. Keyinchalik Shoiddin va Abdushukur tarxkash bo'lgan. Ular zardo'zlarga ish bergan, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarilishi hamda ishni sifatli chiqishini nazorat qilgan. Ustakor barqut, shoyi, ip va boshqa xomashyolarni tarqatib turgan. Faqat ustakor kalobatunni, ya'ni qimmatbaho zar ipni qushbegi idorasi ichida tayinlangan maxsus mirzo kalobatunchidan olgan. Kalobatun alohida joyda saqlangan. Gul kesuvchi ustalar podshohlik ustaxonasida asosiy kishilardan hisoblanar edi. U Gulbur deb nomlangan. Naqqoshlar ichidan (tarhkashlar) chiqqan sarkorcho'badarkash degan chambarak yasovchi ustalar gulburlardan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Matoga chambarak yasash hamda gul tarxini (naqsh nusxasini) tushurish eng mas'uliyatli ish bo'lib bu ishni hamma zardo'zlar ham eplay olmagan, shuning uchun keyinchalik faqat chambarak yoki kergi yasash bilan shug'ullanuvchi ustalar ajratilgan. Saroy ustaxonalarida ish qizg'in bo'lgan. Ustalar azondan shomgacha ishlashgan. Ularga malakalariga ko'ra ish haqi berilgan. Bayram kunlari oqsoqol ustalarga pul hamda buyumlar sovg'a qilinar edi. Ustalarga hukumat tomonidan issiq ovqat berilar edi. Ularni maxsus taxtachalarga o'yib yozilgan «xatcho'bi non» va «xatcho'bi go'sht» (go'sht)ga bo'lar edi. Maosh dam olish kuni — payshanbada qushbegi idorasidan mirzo tuzgan hisob-kitob bo'yicha berilgan. Shogirdlarga ustalar pulning uchdan bir qismini berardilar. Ustaxonadagi oziq-ovqat bir maosh hisoblangan. Shogirdlar oziq-ovqatni yo uylariga olib ketar edilar yoki kambag'allarga sotib yuborar edilar. Tushgan pulni bo'lishib olganlar. Ustalar ba'zi vaqtlarda kechasi ham qolib ishlaganlar. Ularga bir tangadan «kori shab» uchun qo'shimcha hats to'langan. Tezkorlik bilan qilinadigan ishlarni ayrim hollarda buyurtmani shartnoma asosida ustalar uylariga olib borib bajarganlar. Agarda saroy ustaxonasida shoshilinch ish bo'lsa yoki zardo'zlar sonini ko'paytirish maqsadida qushbegi mahallasidan oqsoqol nomiga arkda ishlash uchun eng yaxshi ustalardan bir nechtasi talab qilingan, usta va sohibkorlar arkdagi ishga safarbar qilingan.

Podshohning zardoʻzlik ustaxonasidan tashqari yana xususiy ustaxonalari ham boʻlib, ularning soni 25 tacha boʻlgan. 1885—1911 yillar Buxoroda zardoʻzlik sanʼati gullab yashnagan davr boʻlgan.

Turli davrlardagi ustaxonalar tayyorlagan mollari turlicha boʻlgan. Muzaffarxonning xonligida xususiy ustaxonalarga ancha erkinlik berilgan, podshohlik ustaxonalarida nima tikilsa, oʻshalarni ham tikishga ruxsat berilgan. Ahadxon davrida saroy aʼyonlari hamda katta amaldorlar kiyadigan kiyimlarni tikish man etilgan. Ayrim yakkahol zardoʻzlar buyumlarini bozorlarga olib chiqar, savdogarlarga sotib yuborar edilar. Buxorodagi turli muzofot hokimlari har yili amirga anʼanaviy tor tugi toʻqson mukofoti bilan sotib olar edilar. «Sharif chilyolak» laqabli usta Masharif gullardan tashkil topgan, toʻnga ham, boshqa buyumga ham birday ishlatsa boʻladigan naqsh kompozitsiyalarini oldindan tayyorlab qoʻygan. Bir necha oyda tushiriladigan gul birikki kunda tushurilgan. Xususiy ustaxonalar tez-tez amir saroyi buyurtmalarini bajarar edilar. Ularga ustaga xazinadan bichilgan mato va gul tarxi berilar edi. Qolgan maydachuyda ashyolarni ustaxonani egasi sotib olgan. Buyurtma xarajatlarini qushbegi mahkamaga toʻlagan. Podshohlik ustaxonalari bilan baravar miqdorda oʻz oilasi uchun naqd pul olish huquqiga ega boʻlgan. Zardoʻzlar mayda-chuyda remont qiladigan ishlarni ham qilganlar. Ular eskirgan doʻppi va ayollar peshanabandi va boshqalarni qaytadan remont qilishgan. Eskirgan peshanabandning zardoʻzi guli avaylab kesib olinib roʻmolga koʻchirib qoʻyilgan. Paydo boʻlgan choklarni yoʻqotish maqsadida gullarning chekkasidan qoʻshimcha ingichka yoʻl tikilgan. Zardoʻzi doʻppilarini esa tez-tez tozalab turishga toʻgʻri kelgan. Yaxshi ezilgan shirachni yumshoqlab doʻppining kirlangan joyiga obdon aylantirib ishqalanib tozalangan. Usta zar suviga botirilgan yumshoq paxta bilan zar iplarni artgan. Erkaklar choponidan ayollar kuylagi, xaltacha, bolalar toʻnchasi, doʻppi, yostiqlik jildi, sallalardagi kashtalardan roʻmol hamda peshonabandlarga gul tushurishda foydalanishgan. Ustalar bozorga ayrim hollarda olib-sotarlar ham sotganlar. Chala bitgan buyum, yaʼni abrani ham sotishgan. Olib sotarlar abradan kerakligicha olib yoki oʻz oilasining kuchi bilan yoki maxsus shu ish bilan shugʻullanuvchi ayollarga berib, ishni nihoyasiga yetkazganlar. Olib-sotarlar oʻzi uchun

qulay sharoitda ustalarni kerakli buyumlar bilan ta'minlab turgan, ma'lum miqdorda foydasi bilan mol bergan. Ushbu yo'l bilan olibsotarlarni ancha muddatgacha ustalarni o'z izmida saqlashga erishgan. 1920 yilda amirlik ag'darilib Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilgach, barcha san'at turlari kabi zardo'zlik san'ati ham xalq qo'liga o'tdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida yuz bergan qiyinchiliklar Eron, Arabiston hamda Rossiyadan keltirilmadigan zar simlarining to'xtab qolishi zardo'zlik san'atining rivojiga putur etkazdi. Bu paytda zardo'zlik buyumlarining xillari ham o'zgardi. Keyinchalik esa dabdabali kimxob to'nlar o'rniga do'ppi, ayollarning nimchalari, sumka, tufli, albom muqovalari, choyshablar, ko'zoynak g'illoflari shuningdek divan yostiqlarining g'ilofi va boshqalar tikila boshlandi. Zardo'zlik san'ati bilan amirlik zamonida faqat erkaklar shug'ullangan, chunki ayol qo'li tegsa, zar xira tortadi deb, ularni bu ishga jalb qilinmas ekan. 1930 yilda O'zbekistonda rassomlar uyushmasi, uning qoshida zardo'zlik arteli tashkil etilib unga tajribali zardo'zlar taklif etildi. Dastlabki yillarda Artel xalq talablarini to'liq qoniqtira olmadi. Lekin keyinchalik Artel kengaytirilib fabrikaga aylantirildi. Ishchilar va ustalar soni kundan kun ortib bordi. o'sha davrda talantli rassom Alijon Majidov, talantli zardo'z Fayzullo Qaybullaev, Umar Hayotov va boshqa ustalar ko'plab shogirdlar qabul qilishgan edi. Ular yangi uslubda tikish, yangi shakllar topish ustida ijodiy izlanib, turli buyumlar tikishardi. Chunonchi milliy kiyimlar, uyro'zg'or buyumlari, sovg'alar va maxsus buyurtmalarni bajarishardi. Milliy kiyimlar ichida eng keng tarqalgani zardo'zi do'ppilar bo'ldi. Jumhuriyatimizni turli chekkalariga keng tarqalgan bo'lib, har bir rayonning o'ziga xos kashta tikish usuli bor. Zar do'ppilar faqat Buxoroda tikilardi. Ayniqsa, xotin-qizlar paranji tashlashidan so'ng ular chiroyli do'ppilar kiya boshladilar. Buxorodagi zardo'z ustalar do'ppilarning yangi ajoyib nusxalarini yaratdilar, ayniqsa qizlar, kelinchaklar kiyadigan yoqut, olmosdek charaqlagan «Gulnoz», «Bahor», «Navro'z», «Dilorom», «Gulbahor», «Dilafro'z», «Ra'no», «Festival», «Qo'shbodoll» va «Baxt» deb nomlangan do'ppilar tikildi.

1960 yillardan buyon xotin-qizlar oyoq kiyimlari (ham uyda, ham ko'chada kiyish uchun mo'ljallangan) tufllilar zardan (shakli uch xil) tikila boshlandi. Hamma

joyi zar bilan bezatilgan yaxlit «sadbarg», orqasi yarim ochiq zardo‘zi tufli, orqasi hamda uch qismi ochiq zardo‘zi tufli.

50-yillarning oxiri 60-yillarning boshida chet ellardan tashrif buyurgan do‘stlarimizning ehtiyojini qondirish maqsadida fabrikada turli sovg‘alar, ya’ni albom muqovalari, ko‘zoynak g‘iloflari va boshqalar ishlab chiqarildi. Zardo‘z buyumlarga lola, oftob, archa, bodom, minorai kalon, «Somoniy maqbarasi» kabi naqsh va rasmlar aks ettirildi. Zardo‘zlik san’atining yirik namoyandalaridan biri, buxorolik zardo‘z usta No‘mon Aminovdir. U Buxoro shahrida 1908 yilda zardo‘zlar oilasida dunyoga keldi, otasi Olimjon Majidov Buxoro amirligi ustaxonasida 12 yil ishlagan edi. U No‘monjoga yoshlik chog‘idanoq zardo‘zlik sirlarini o‘rgata boshladi. 1920 yilgacha Buxoro amirining ustaxonasida 300 ta erkak shug‘ullanar edi. No‘monjon asta-sekin gulburlik, rassomlik, zardo‘zlik sirlarini egallay boshladi. 1934 yilda Dzerjinskiy nomidagi artelda zardo‘zlik faoliyatini davom ettirdi. Artelda ishlash uning uchun uncha qiyin bo‘lmadi, aksincha zavqli bo‘ldi. U yerda zardo‘zi to‘nlar, buxorocha do‘ppilar, telpaklar tikildi. U artelda san’at dargohining jonkuyarlaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Artel qoshida FZO maktabi tashkil etildi. Maktabni bitirib chiqqan yoshlar sexda ishlay boshladilar va keyinchalik mashhur ustalar bo‘lib etishdilar. Masalan, halima Xalilova, Zubayda Yahyoeva, Zubayda Rahmatova, Mubashir Kamolova, Hakimjon Hayotov va boshqalar. No‘monjon Aminov o‘z hamkasblari bilan 1947 yili A. Navoiy nomidagi opera va balet katta teatri uchun hajmi 7x27 bo‘lgan sahna pardasi tayyorladi. V. Stolyarov bu pardaning eskizini chizdi. Unda uzunligi 2,90 metrli yettita majnuntol bajarildi. Har bir majnuntolning tepa qismiga O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Jumhuriyatining gerbi tikildi. Bu buyurtmani bajarish ancha qiyin bo‘ldi. Unda 45 ta usta tinimsiz ishladi. N. Aminov shu gruppaga zardo‘zlari qatori jumhuriyat Oliy Soveti Prezidiumining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi.

N. Aminovning ko‘pgina asarlari har xil muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Uning asarlari turli davrlarda bajarilgan bo‘lsa-da, san’atkorning mahorati, izchilligi, tabiiyligi va yangi uslubining tiniqligi bilan ajralib turadi. N. Aminovning ijodidagi yutug‘i qotib qolmay zar tikish xillarining turli qirralarini izlab

shu sohada yangiliklar yaratdi. Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyidagi «Go'ri Amir» tasviri juda chiroyli va ta'sirchan chiqqan. Namoyon Samarqandning 2500 yilligiga bag'ishlangan edi. Bu asarda uslub hamda ijro san'atining izchilligini ko'ramiz.

N. Aminov «Bodom» asarini yaratdi. Bu asarda kompozitsiya juda sodda hamda tushunarli chiqqan bo'lib, unda anchadan beri unutilib ketilayotgan islomiy naqshni qo'llab, ajoyib rangli bir asar yaratdi. Talantli usta o'z asarlarida san'atga, hayotga bo'lgan mehrini ifodalashga intildi. U yoshlarga xalq amaliy san'atining noyob xazinasini chin yurakdan o'rgatdi va zardo'zlik san'atini rivojlantirdi.

2.2. Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar.


Zardo'zlikda mahalliy jaydari va chetdan keltirilgan materiallar ishlatiladi. Erkaklar choponi baxmal bershim degan barqutlardan tikilgan. Baxmal bershim chetdan keltirilgan barqutlarning a'lo navi hisoblanib, to'nlar uchun faqat shu barqutdan foydalanilgan. Rus barquti, ya'ni baxmali faranj ham keng iste'mol qilingan. Bu barqut Rossiya orqali G'arbiy Yevropadan keltirilgani uchun baxmali zagronish deb yuritilgan. Ruscha zagranichniy so'zidan olingan. Bu barqutlarning yo'l-yo'l, katak-katak, sidirg'a, bosma gulli navlari bo'lgan. Odamlar sho'x gulli barqutlarni ko'proq xarid qilganlar. Ayniqsa, qizil binafsha, yashil va ko'k rangli barqutlar odamlarga yoqqan. Binafsha va qizil rangdagi g'oyat tekis barqutlar bolalar va ayollar kiyimi uchun juda mos bo'lgan. Silliq, yarim ipak barqut, ya'ni baxmali musi chopondan tashqari barcha buyumlar uchun keng qo'llanilgan. Bundan tashqari Buxoro baxmali jaydari baxmal bo'lib, u ko'p ishlatilgan. Uning to'q yashil hamda to'q sizillari jul va poyafzal tikishlarda qo'llanilgan. Zardo'zlikda barqutdan tashqari surp, movut, shoyi, atlas, doka, jaydari alacha hamda teridan foydalanilgan. Atlas buyumlarga zardan gullar tikilgan. Atlas zarga chidamsiz va tez sitilib ketgan. Gulli hamda sidirg'a atlasdan belbog'lar va ro'mollar tikilgan. Shoyi gazlamadan ayollar ustki kiyimlari ro'mol va belboqlar

tikiladi. Ayniqsa silliq yoki doki xanjariy nomi bilan yuritilgan. Surp barqutga qaraganda juda ko‘p ishlatilgan. Erkaklar ustki kiyimlarini Hindistondan olib kelingan movutdan tikishgan. Uning nomi kashmiri deb yuritilgan. Kashmiridan salla va to‘nlarga zardan gullar tikilgan. Undan faqat saroy ahlining oliy tabaqalari zar kashtalar tikilgan kiyim kiyishgan. Jaydari movut zardo‘zlikda ishlatilmay, yarim shoyi jaydari alacha gazmolidan zardo‘zlikda so‘zana, takyapo‘sh, joynamoz, lo‘la bolish jildlari va boshqa narsalar tikilgan. Alacha gazmolidan ayollar hamda bolalar kiyimi tikilgan, lekin erkaklar choponi kam tikilgan. Sidirg‘a turli-tuman alachalar zardo‘zlikda ko‘p ishlatilgan. Qarshilik usta Mulloning alachalari sham‘iy alachasi eng yaxshi gazmol hisoblangan. Teridan ayollar kovushi tikib, u maxsi bilan kiyilgan. Zardo‘zlikda turli xil sim iplar ishlatilgan. U asosiy xom-ashyo hisoblanib, zar va kumush iplar tayyorlash tarixi uzundur. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush iplar tayyorlash texnologiyasi ma‘lum bo‘lgan. Dastlab «o‘rama oltin» degan zar simlar ishlab chiqarilgan. o‘rta Osiyoda ham zar simlar ishlab chiqarilgan. Go‘ri-Amir, namoen. 1970 Ne‘mat Aminov. O‘rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. Hindiston chet ellarga juda ko‘p zar simlar chiqargan. Bundan tashqari Eronda Sheroziy deb yuritiladigan zar simlar ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroga zar simlar faqat Moskvadan, keyinchalik esa Angliyadan keltirilgan. (12)


XVII asr boshlarigacha Rossiyaga Sharqdan zar simlar keltirilgan. o‘sha davrda Moskvada podsho saroyida nemis ustalari yordamida zar va kumush simlar ishlab chiqarilar edi. O‘ndan ortiq turli xil zar va kumush simlar Buxoro bozorlarida sotilar edi. o‘sha vaqtda kalobatun degan zar tola mashhur edi. U momiq bo‘lib, goh zar, goh kumush ip o‘rnida qo‘llaniladi. Tilla kalobatunni tayyorlashda sim ipga tilla suvi yurgizilgan. Kalobatunda 84% li kumush qotishmasi qo‘llanilgan. Uning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi har xil bo‘lgan. XIX asrning 30—70 yillarida tikilgan buyumlarda kalobatunning asosi tovlanuvchan sariq tilla rang ip, 80 yillarda to‘q sariq ipak ip 90-yillarda esa to‘q sariq tus shoyi ip bilan tilla rang ip qo‘shib tikiladigan bo‘lgan. 1900-yillardan so‘ng alvon tusli ipni to‘q jiggarrang va och jiggarrang iplar bilan qo‘shib ishlatishgan. XX asrning 10 yillarida yana to‘q sariq

tusdagi iplar ishlatila boshlandi. Bu ip bilan erkak, ayollarning bosh kiyimlari tikilgan. Kalobatun bilan sim buxorolik zardo‘zlar uchun asosiy xom ashyo hisoblangan. XIX asrdan boshlab shu davrgacha barcha buyumlarda kalobatun uchraydi. Bu nav dastlab Buxorodan olib keltirilgan. Kalobatunning xar xili: masalan, «yak raxi o‘rusi hali baland», «kalobatuni jingila» va boshqalar.


Ular bir kasbda o‘ziga xos asbob-uskunalar bo‘ladi. Zardo‘zlikda asbob-uskunalar uncha ko‘p bo‘lmasada o‘ziga xos tomonlariga va tuzilishiga ega. Ularni birma-bir xarakterlab o‘tamiz.




a - yog'och dasta



b - shamshirak



v – chamberak





g - xoraklar - yog'och poylar

1-rasm. Korcho‘b qismlari: chamberak va xoraklar




2-rasm



3-rasm

Chambarak — korcho‘b, uning to‘n, jun hamda maydachuyda buyumlar uchun mo‘ljallangan uch turi mavjud. Ular katta-kichikligi bilan bir-biridan farqlanadi. Korcho‘b uzunligi 320 santimetrgacha bo‘lgan ikki teng yonli silliq yog‘och dastadan iborat bo‘lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chamberakni xohlagan kattalikka keltirish mumkin. Chamberak bo‘zdan qilingan kerish (tavar) tortiladi hamda u tikib tayyor bo‘lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo‘zlar ko‘rpachada chordona holda o‘tirib ishlaganlar. Zardo‘zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila oddiy yog‘ochdan chorrax (to‘rt qirrali) va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo‘rg‘oshin kuyib vazminlashtirilgan bo‘ladi. Unga to‘rt qavat qilib zar o‘raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. Bunday patilalar ipni zich qilib o‘rashni ta‘minlagan. Zardo‘zlikda angishvona ham ishlatiladi.



4-rasm. Zardo‘zlik asbob-uskunalari

Angishvona — forscha, angusht, ya‘ni barmoq, vona, bona, saqllovchi degan ma‘noni bildiradi. Yostiq, ko‘rpa tikishda qo‘lga igna kirib ketmasligi uchun

barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof. Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan, ya'ni nina toyib ketmasligi uchun chuqurchalardan iborat bo'ladi. Qadimda metall kam bo'lganligi uchun charmdan ham tayyorlangan. Zardo'zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi bo'ladi, uni o'rta barmoqqa ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalgani chap qo'lning uchta barmog'iga taqilib ishlanadi. Charmli angishvonani fabrikada metalldan ishlangani ham bo'ladi.

Igna — zardo'zlikda chatishtikish uchun ishlatiladigan o'rtacha kattalikdagi igna.

Qaychi shuturgardon — zardo'zlikda ishlatiladigan qaychi turi bo'lib, u tuya bo'yin qaychi degan ma'noni beradi. Ya'ni tuya bo'yniga o'xshash qaychi bo'lib gul qirqishda ishlatiladi. Zardo'zlikda oddiy qaychilar ham ishlatiladi.


2.3 Zardo'zlik tikish usullari mavzusini o'qitish texnologiyasi

Zardo'zlikda 30 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o'ziga xos tomonlarining nomlari bilan bir-biridan farq qiladi. N. Aminov o'zining «Biz zardo'zlarmiz» risolasida zardo'zlik sirlari, zar tikish xillari va usullari to'g'risida batafsil to'xtab o'tgan. Zardo'zlik umuman ikkiga bo'linadi, birinchisi — zamindo'zi, ikkinchisi — guldo'zi.

Zamindo'zi — bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gul naqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zamindo'zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda ip 4 yoki 5 qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo'lgan ingichka shurni zardo'zlikda siddi deb yuritiladi. Zardo'zlikda tikilish joyining yuzasi katta yoki kichikligiga qarab, o'lchamga moslab stanokda siddilar sariq bo'z ustiga sakkiz, yigirma, yigirma to'rt qator qilib tortiladi. Siddilar aniq hisob bilan tikilib ular sanab tikiladi hamda ularning soni mo'ljaldagidan ortiq bo'lmasligi kerak. Aks holda, mavj yoki nusxalar buziladi. Zaminduzida mavji yak ro'ya va mavji du ro'ya qismlari bor. Zamindo'zi qadimda qimmatbaho to'nlarda ishlatilgan bo'lib hozir zardo'zi do'ppilarning jiyagidagina qo'llanib kelinadi.

Guldo‘zi — bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarining o‘zi zar bilan tikiladi. Guldo‘zi tikish usuli o‘ziga xos bo‘lib, bu kuyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi salin qog‘oz, karton yoki teridan qirqib andazasi tayyorlanadi. Sidirg‘a baxmal matoga qadab chiqiladi, ya‘ni omonat tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo‘rtma naqsh gul hosil bo‘ladi. Endi zardo‘zlikda zar tikish xillari hamda usullari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. Bu aytib o‘tiladigan tikish xillarining ko‘pchiligi zardo‘zlikda qo‘llanilyapti. Ayrimlari deyarli qo‘llanilmayapti. Bu tikish xillari kam qo‘llansa-da, lekin uning ishlatish sohasini topsa bo‘ladi. Bu usullarning yo‘q bo‘lib, unutilib ketayotgani kishini achintiradi. Qadimdan qo‘llanilib kelingan tikish usullaridan yosh avlod foydalansa, xalq yaratgan an‘anaviy, nodir uslublarni asrab qolgan bo‘lur edik.

Yakra mavj, yakra chashmi bulbul — bu tikish usulida mavji yak ro‘ya bilan chashmi bulbul qo‘shib tikilib, bir yo‘li mavj hamda bir yo‘li chashmi bulbul hosil qilingani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Bu usul zardo‘zlarni shu san‘atga ijodiy yondoshishi tufayli yuzaga kelgan.



5-rasm

Chashmn bulbul — bulbulning ko‘zi degani. U shaxmat xonalariga o‘xshab ketib to‘rtburchak naqshlar ajoyib mavjlanib turadi. Naqshlar siddi bilan sanab tikiladi. Xuddi boshqa zamindo‘zidagidek tikiladi. Tovus, xurshid kabi qadimgi buxorocha do‘ppilar gir aylanasining tepa sismiga «obiponcha» ishlatilgan. U kartondan kesib, zamindo‘zi ustiga to‘rt qavat kumush zar bilan tikib chiqiladi.

Mavji cheqi — mavji ochabacha deb ham yuritiladi. Zamindo‘zining bir turi bo‘lib, o‘ziga xos tikiladi. Chunonchi, siddilar to‘rt va ikkitadan sanab tikiladi. Natijada katta va kichik mavjlar hosil bo‘ladi. Zardo‘zlar katta mavjni — ocha, ona deb yuritsalar, kichigini esa bacha, ya’ni bola deb yuritadilar.

Mavjn du ro‘ya — ikki tomonlama mavj, zamindo‘zining qismlaridan biri bo‘lib, engi shabadada daryoning mavj urib turganligini eslatadi. Shuning uchun mavji du ro‘ya deb ataladi. Obi lo‘la deb ataladigan ip ishlatiladi. U zardo‘zlikda ip siddilardan yo‘g‘onroq bo‘lib, jaydari ipdan yigirmayigirma besh qavat qilib, kattik eshiladi. Chegara misol siddilarning har ikki chetiga tortiladi. Obi lo‘la zamindo‘zining chetlari chiroyli chiqishi uchun ishlatilib, zamindo‘zi enining kengligiga qarab siddilar soni ko‘paytiriladi. Lekin obi lo‘la ikki qatorligicha qolaveradi.



6-rasm

Mavji yak ro‘ya — bir tomonlama mavj, zamindo‘zining qismlaridan biri bo‘lib, u daryo mavjiga o‘xshash bo‘ladi. Shuning uchun mavji yak ro‘ya deb ataladi.

Sochmado‘zi — ikki qavat zar va bir qavat mayin ipak bilan birga qo‘shib eshiladi hamda lola, sebarga, bargga gullar, shakarak kabi tikiladi. Har gal sochma tikilganda zar bilan ipak birgalikda albatta o‘rtaga qilib eshilishi lozim. Bu usul gullarga tiriklik mavjini beradi. U katta namoyonlarda ishlatilsa, ajoyib manzaralar hosil bo‘ladi. Bu tikilgan gullar quyosh nurida tovlangan gulzorni eslatadi. Mashhur zardo‘z No‘mon Aminov o‘zining O‘zbekiston davlat gerbida sochmado‘zidan foydalangan. Ikki qavat zar va bir qavat yashil ipakni birbiriga qo‘shib paxta bargini eslatadi. U o‘ziga xos ajoyib ko‘rinishga ega. Tikishning bu qadimiy usuli ham hozirda tez suratlar bilan rivojlanmoqda.

Kubbi almosi — sariq bo‘z ustiga tikiladigan qubba bo‘lib, uning gullari olti bargli, sakkiz bargli bo‘lishi mumkin. Qadimda qubbalarni latun zar ipda tikilgan hozirda esa zar mishura bilan tikiladi. Chunki latun zar iplar yo‘q. Quyidagi barglar tikiladi va bo‘sh qolgan oralari o‘rtaga eshilgan ikki qavat zar bilan tahrir tikishida to‘ldiriladi. Bir xil rangli ip bilan qubbaning o‘rtasidagi uzuk ko‘ziga o‘xshash joyi to‘ldirilib tikiladi. Tayyor qubbani bo‘z ustidan kesib olinib, gumbaz hosil qilish uchun uning tagiga paxta qo‘yiladi. Uni joyiga o‘rnatilib atrofi kobuli tikishda sherozi, ya’ni 8 qavat zar bilan tikib chiqiladi. Shundan so‘ng ajoyib gumbazsimon gul hosil bo‘ladi. Ba’zi hollarda mis qubbalar va kumush qubbalar ham bo‘ladi. Mis va kumush qubbalar maxsus buyurtmalarga bajariladi. Ular ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega.

Kandahori — zar tikishning qadimiy va juda chiroyli usullaridan bo‘lib, bunda uch xil, ya’ni 8 baxyali, 6 baxyali va 4 baxyali qilib, sariq bo‘z ustiga tikiladi. Ba’zi hollarda duxoba ustiga ham tikish mumkin, lekin duxobaga tikish uncha samara bermaydi. Chunki duxobaning tuklari zar orasidan chiqib, mahsulotning sifati buziladi. Qandahori tikish turi aslida Afg‘onistondan kelib chiqqan bo‘lib, uni tikishda asosan bo‘zdan foydalaniladi. Kandahorida asosan yupqa matolar ishlatilgan bo‘lsa, to‘rt qavat zar o‘rash lozim. U sakkiz yoki olti qavat zar bilan tikiladigan xilidir. Ba’zi hollarda qandahori atrofi oq kumush zar bilan kobuli qilib tikib chiqiladi.

Xishti haram — murakkab tikish xili bo‘lib zamindo‘zi gruppasiga kiradi. Xishti haram tikish uchun uch yoki to‘rt xil ipak ip yoki mulina iplar va har xil rangdagi ip uchun bittadan igna lozim. Tikishda naqshlarga qat‘iy rioya qilish kerak bo‘ladi. Uning umumiy ko‘rinishi koshinkorlik devorlarini eslatadi. har bir xisht birbiridan yaxshi ajralib turishi uchun, zar ip, ko‘k, yashil, havorang, binafsha rang ipak turlari ishlatiladi. 1906 yilda tikishning usulini Aminjon Majidov yaratgan.

Shashxol — u zamindo‘zi gruppasiga kirib, tuzilishi jihatidan chashmi bulbulga o‘xshasada shashxolning chashmi bulbuldan enliroq bo‘lishi bilan undan farq qiladi. U qanchalik enliroq tikilsa, shuncha badiiy chiqadi. Shashxol tikish xili kuylak oldi qismlarida, choponlarda ishlatiladi. Davlat gerblari va ayollar sumkasi shu usulda tikiladi. U boshqa zamindo‘zlarga qaraganda ancha murakkab bo‘lib, agar igna noto‘g‘ri urilsa shashxol buziladi. U romb shakli ko‘rinishida bo‘lib o‘rtasida nuqtalari bo‘ladi. Shuning uchun shashxol, ya‘ni olti xol deb nomlangan. Buxorolik zardo‘z N. Aminovning «Go‘ri Amir» pannosidagi maqbara devorlari shu usulda tikilgan.

Bozbandcha — tumorcha degani. Tumorcha ko‘rinishda bo‘lgani uchun shu nom bilan yuritiladi. N. Aminov «Go‘ri Amir» pannosida gumbazni pastki qismi bozbandcha usulda tikilgan bo‘lib, o‘ziga xos ajoyib ko‘rinish bergan.

Shoxchai du ro‘ya — ikki yoqlama shox degani, keyingi yillarda paydo bo‘lgan tikish xillaridan biri. Tuzilishi jihatidan qarasang, shoxsimon naqshlar ikki tomonga joylashgan bo‘ladi.

Shoxcha — zamindo‘zining bir turi bo‘lib, shoxlar ajoyib ko‘rinishda tasvirlanib, u do‘ppilar atrofirdiga tikiladi. Shoxchadan ba‘zi bir hoshiyalarda foydalanish mumkin.

Sambo‘sa — u xuddi varaqi somsani eslatadi, shuning uchun tojikcha sambo‘sa o‘zbekcha somsa. Shuning uchun zar tikishning bu turini sambo‘sa deb yuritiladi. Aylana do‘ppilarda zar tikishning sambo‘sa usuli ishlatiladi. Zamindo‘zi o‘rniga obi kofta tikiladi. «Kofta» tojik so‘zidan olinib o‘zbekcha kovlanib olingan degan ma‘noni anglatadi. Obi kofta ikki xil ipak bilan tikib to‘ldirib o‘ziga xos ko‘rinishdagi naqsh tasvirini beradi.

Shakarak — zar ip ikki qavat qilib oʻrtaga eshilib yana ikki qavat qilib eshib tikish usulidir. Bu eshilgan zar ip bilan maxsus gullar hamda barglar tikiladi. Maxsus gullar searga, panj barga, chappadoʻzi, lolalar shakarak usulida tikilsa oʻziga xos nafis hamda goʻzal chiqadi. Shakarak asosan guldoʻziga oʻxshab ketsada ular birbiridan farq qiladi. Masalan, shakarakda gullar hamda barglar aloqida tovlanib va jilolanib koʻrinishga aniqlik kiritadi.



Marqoʻlai dumchanok — dumli margʻoʻla, zar tikishning bu usuli kam ishlatiladi. U ayyollar roʻmoliga, kamkor choponlar, yostiqchalar hoshiyasiga zar iplar bilan tikiladi. Uning ikki xil sherozi, yaʼni 8 qavat eshilgan zar ipda hamda 4—5 qavatli zar iplar bilan tikib chiqiladi.



Qobuli — tikish xili Afg'onlardan olingan bo'lib, shuning uchun Afg'oniston poytaxtining nomi bilan kobuli deb yuritiladi. Ayniqsa afg'on va hind zardo'zlarida qobuli tikish xili juda ko'p qo'llanilgan. Qobuli asosan sabr, bodom, chilolak deb ataladigan gullar qubba hamda zamindo'zilarining ichki tomoniga qo'llaniladi. Qobulini gul atroflariga ishlatilganida zardo'zi yanada badiiy chiqadi.




Tahrir — tikish usulini bunday deb atalishining sababi qo'lyozmaning g'aliz jumllarini tuzatishdek jarayonni eslatishdir. U asosan guldo'zi atroflarini to'ldirish uchun kerak. Gul tikishda zar bo'laklari oddiy ip bilan ilintirilib tikiladi. U biroz bo'lsada ko'rinib turadi, shunitsg uchun har bir gul bargining hoshiyasi sheroziy zar bilan tikiladi. Bu taxriri tikish guldo'zining yanada badiiy chiqishiga olib keladi. Agarda ayrim kamchilik bo'lsa, tahrir o'sha aybni bekitish uchun xizmat qiladi.

Tagalak — tikishning bu usuli qo'y shoxining ko'rinishini eslatgani uchun uni shunday nomlanadi. U zar gullar orasini to'ldirish uchun ishlatilishi mumkin. Yana bo'sh joy qoldirilsa, unga marg'o'la qo'shib tikiladi. Tagalak yupqa matoga to'rt hamda

olti qavat zar ip bilan tikiladi. Agarda duxoba bo'lsa unga 8 qavatli tofta zar bilan tikilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Marqo'la — forsha zulf ma'nosini bildiradi. Zardo'zlikda zar tikishning qadimiy usullaridan biri. Marqo'la usulida olti qavat zar ip bilan yupqa hamda nozik gazlama, ya'ni sidirg'a krepdeshin yoki atlasga tikiladi. Zardo'zlar keyinchalik mar'go'laning sakkiz qavat eshilgan zar ipda duxobaga tikkanlar. Buni ustalarimiz sakkiz qavatli tofta zar, ya'ni «sherozi» deb yuritadilar. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida sherozi zar kelib chiqqan. Marqo'la zar ip tikish usuli ayollar peshonabandiga juda mos tushadigan tikish turidir. Raqqosalarimiz shunday peshonabandlarni kiyib raqsga tushadilar. O'zbek milliy kiyimlaridan biri bo'lib an'anaviy ravishda davom etib kelmoqda.



Guldo'zi — zardo'zlik san'atining eng qadimiy hamda asosiy usullaridan biri, u qadimda zarbof to'nlarni tikishda qo'llanib kelingan. Guldo'zi usulida karton gullar yuzasi to'rt qavat qilib o'ralgan zar ip bilan bir tekisda qoplanadi hamda zar ip matodan o'tmaganligi sababli karton tomoni oddiy ipda tikiladi.

Xorak — zar tikishning usuli XIX asr oxirlarida ixtiro qilingan. U zardoʻzlikning juda koʻrkam turlaridan biri. Xorak guldoʻzi va simdoʻzilar atrofiga bezak sifatida tahrir oʻrnida ishlatiladi. Xorak toʻrtbesh qavat zar ip bilan tikiladi.

Kungurai sedona — uning ikki turi boʻlib, sherozi duxoba ustiga, olti qavat zar ip bilan yupqa matolarga tikiladi. Uning «kungurai sedonai yak raftor» va kungurai sedonai du raftor» xillari bor.

Mavji tunuk — nafis gazlamaga asosan sallalarni tikishda qoʻllaniladi. Hozir esa namoyonlarda qoʻllanilyapti. Masalan, N. Aminovning «Salyut» deb nomlangan namoyoniga mavji tunuk tikish turi qoʻllanilgan.

Mavji xanjar — burchak shaklida tikish xili boʻlib, kumush zar bilan qobuli uslubida uchburchak tikiladi. Burchak oʻrtasiga tilla zarda xanjari tikib chiqiladi.

Dabbusa — uzun hoshiya, davra doʻppilarda ishlatiladigan tikish turidir. Zardoʻzlar ikki oba zar ipda tikib chiqilgach, ularning oʻrtasi dabbusa sim bilan tikib toʻldirilib chiqiladi.

Chordarchor — zamindoʻzining bir turi boʻlib, zamindoʻzi siddilari yoʻgʻonroq, oralari ochiqroq boʻladi. Ipaklar qattiqroq tortib tikichladi. Uning koʻrinishi chiroyli qilib terilgan Gʻishtning koʻrinishini eslatadi. U namoyonlarda ishlatiladi. Qadimda choponning hoshiyalarida ishlatilgan. Chordarchor moʻljalga qarab olinib, uch qator bilan sakkiz-oʻn siddigacha va undan ortiq siddi tortib tikiladi. A. Aminovning «Ismoili Somoniy maqbarasi» nomli namoyonida chordarchor tikish usuli qoʻllangan. (13)

Pulakchadoʻzi — pulakcha qizil, oq, koʻk, sariq, yashil, havorang boʻladi. U Rossiya zardoʻzligiga xos material boʻlib, tojik zardoʻzlari bu usulda juda ustasi farang. Hozir ham pulakchadan keng foydalanilyapti.

Likak doʻzi — u xuddi jajji prujinani eslatadi, u tilla va kumush rangda boʻladi. Keyinchalik likakdoʻzi tikish xili keng tarqalgan, zardoʻzlikda shoʻx oʻynoqi koʻrinish beradi, 5% li kumush va oltin suvi berilgan turlari yoki misdan qilinib oddiy usulda pardozlanishi ham mumkin.

Xoraki tunuk — zardoʻzlikda tikish usuli boʻlib, u krepdeshin, shoyi hamda kapronga tikiladi.

